QASHQADARYO VILOYATI
QAMASHI TUMANI HOKIMINING

Q A R O R I

180500, Qamashi shahri, Amir Temur ko‘chasi, 1-uy. Tel: (375) 53-24-490, t.qamashi@exat.uz

2023 - yil 15 - may 142-4-58-Q/23 Qamashi tuman hokimligi

Qamashi tumani hududida umumfoydalanuvidagi avtomobil yo‘llari va markaziy ko‘chalarida fuqarolar va transport vositalarini harakati xavfsizligini ta’minlash, yo‘l transporti hodisalarini oldini olish maqsadida yo‘l belgilari o‘rnatish to‘g‘risida

O'zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida”gi Qonunining 6-, 25- moddalariga, “Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida”gi Qonunining 4-*, 16-moddalariga, O'zbekiston Respublikasining 2013-yil 10-apreldagi “Yo'l harakati xavfsizligi to'g'risida” 348-son Qonunining 6-moddasiga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022- yil 12-apreldagi 172-son qaroriga asosan tuman hududida yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash hamda shahar markazida tirbandlikni oldini olish yuzasidan tegishli tashkilotlar bilan hamkorlikda amalga oshirilishi lozim bo'lgan keng ko'lamli tashkiliy va amaliy chora-tadbirlar rejasini ijrosini ta'minlash maqsadida, tuman ichki ishlar bo'limining 2023-yil 7-yanvardagi № YHXB51/-34-sonli taqdimnomasini ko'rib chiqib,

Q A R O R Q I L A M A N:

1. Qamashi tuman Ichki ishlar bo'limining tuman hududida yetishmagan yo'l belgilarini o'rnatish to'g'risida 2023-yil 7-yanvardagi № YHXB51/-34-sonli taqdimnomasi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Qamashi tuman hududida umumfoydalanuvidagi avtomobil yo‘llari va markaziy ko‘chalarida fuqarolar va transport vositalarini harakati xavfsizligini ta’minlash, yo‘l transporti hodisalarini oldini olish maqsadida o‘rnatilishi lozim bo‘lgan yo‘l belgilari va manzili ilovaga asosan tasdiqlansin hamda mazkur yo‘l

belgilarini o‘rnatishga ruxsat berilsin.

3. Qamashi tuman Ichki ishlar bo‘limi boshlig‘i (N.Meyliyev), tuman ichki ishlar bo‘limi Yo‘l harakati xavfsizligi bo‘linmasi boshlig‘i (X.Xayrullayev) va tuman yo‘llardan foydalanish unitar korxonasi direktori (SH.Almardonov)ga tuman hududida umumfoydalanuvidagi avtomobil yo‘llari va markaziy ko‘chalarida fuqarolar va transport vositalarini harakati xavfsizligini ta’minlash, yo‘l transporti hodisalarini oldini olish maqsadida yo‘l belgilarini o‘rnatish va doimiy nazorat qilish vazifasi yuklatilsin.

3. “Qamashi” gazetasi (T.Tillayev) va tuman hokimligining axborot xizmati (N.Rasulov) ushbu qarorni tuman hokimligining rasmiy vebsaytiga hamda boshqa OAV larda keng yoritishini ta'minlasin.

4. Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari Q.Haydarov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **B.Tog‘ayev**

Qamashi tuman hokimining
2023 yil 15 maydagi
142-4-58-Q/23-son qaroriga
1-ilova

Tuman hududida umumfoydalanuvidagi avtomobil yo‘llari va markaziy ko‘chalarida fuqarolar va transport vositalarini harakati xavfsizligini ta’minlash, yo‘l transporti hodisalarini oldini olish maqsadida o‘rnatilishi lozim bo‘lgan yo‘l belgilari va manzili

RO‘YXATI

№	Yo‘l belgisi o‘rnatilgan manzil nomi	Yo‘l belgisini nomi	Yo‘l belgisini soni
1.	4K298 “Shorcha-Qamashi-Xontushdi”avtomobil yo‘lining 10-15 kilometrlar oralig'ida yo'lning o'ng va chap tomonida,	3.24 “Yuqori tezlik cheklangan” (70) км/соат	2 dona
2	4K298 “Shorcha-Qamashi-Xontushdi”avtomobil yo‘lining 10-15 kilometrlar oralig'ida yo'lning o'ng va chap tomonida,	3.25 “Yuqori tezlik cheklangan” hududining oxiri” (70) км/соат	2 dona
3	4K340 “Qamashi-Chimqo‘rg‘on” avtomobil yo‘lining 1 km oralig‘ida	5.16.2 “piyodalar o‘tish joyi” 1.21 “Bolalar”	4 dona
4	4K340 “Qamashi-Chimqo‘rg‘on” avtomobil yo‘lining 7.5-8.5 km oralig‘ida	3.27 “to`xtash taqiqlangan”	2 dona
5	4K340 “Qamashi-Chimqo‘rg‘on” avtomobil yo‘lining 1 km oralig‘ida	Yangi piyodalar o‘tish joyi tashkil etib, yotiq yo‘l chizigi chizish	1 joyda